



TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK JURNALI

1991-yildan
chiqa boshlagan

2024-yil. 11-son

ISSN 2010-5584

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

www.tilvaadabiyot.uz www.tilvaadabiyot.uz www.tilvaadabiyot.uz www.tilvaadabiyot.uz www.tilvaadabiyot.uz www.tilvaadabiyot.uz www.tilvaadabiyot.uz www.tilvaadabiyot.uz



BU YIL UMUMTA'LIM MAKTABLARIGA 500 NAFAR XORIJLIK TIL MUTAXASSISLARI JALB ETILDI

Ushbu sonda



DOLZARB MAVZU

Bolalarimiz ertaga
raqobatbardosh
mutaxasssiga aylanishlari
uchun bugun chet tillarni
puxta egallashlari kerak

3
bet



TAHLIL

O'zbek tilida so'z
o'zlashtirish:
manbalari va usullari

9
bet



METODIK TAVSIYA

PISA xalqaro baholash
dasturi asosida maktab
o'quvchilarining o'qish
savodxonligini oshirish
metodikasi

21
bet



TADQIQOT

Surxondaryo
gidronimlarining
morfologik tahlili

42
bet



К ЮБИЛЕЮ
ПОЭТА / ПИСАТЕЛЯ

Поэзия,
объединяющая
народы

49
bet



TIL VA ADABIYOT

ТА'ЛИМИ

ЎЗБЕКISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida 2014-
yil 19-dekabrda
0055-raqam bilan
qayta ro'yxatga
olingan
2024-yil. 11-son

Tahrir hay'ati:

Hilola UMAROVA
Farhod BOQIYEV
Qozoqboy YO'LDOSHEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Jabbor ESHONQULOV
Abdurahim NOSIROV
Bahodir JOVLIYEV
Yorqinjon ODILOV
Valijon QODIROV
Tolib ENAZAROV
Ravshan JOMONOV
Halim SAIDOV
Nilufar NAMOZOVA
Sanobar TO'LAGANOVA
Yo'ldosh RAHMATOV
Anatoliy LIXODZIYEVSKIY
Elvina ALIYEVA
Qodirjon NOSIROV
Bekkenbauer REYMOV
Yuliya MUSURMANOVA
Bashorat BAHRIDDINOVA
Shahnoza TURNIYAZOVA
Ra'no ABDUSALOMOVA
To'liqin XOLJO'RAYEV
Xadicha MUHIDDINOVA
Umid XO'JAMQULOV
Salima JUMAYEVA
Shahobiddin RASULOV
(bosh muharrir o'rinbosari)

Bosh muharrir

Farrux JABBOROV

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Nargis BOBODJANOVA

Sahifalovchi

Gulnoza VALIYEVA

Tahririyat manzili:

100011, Toshkent shahri
Navoiy ko'chasi 30-uy.
Telefon: (55) 510-28-44,
(77) 358-57-67
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Materiallar @TilAdabiyot_bot orqali qabul
qilinadi.

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar
"Til va adabiyot ta'limi" dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning
tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalar bo'lishi mumkin.

Mualliflarning ism-familiyasi shaxsini tasdiqlovchi
hujjatiga muvofiq yoziladi.

Bosmaxonaga 2024.25.11. da topshirildi. Ofset
usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84/8.
Shartli bosma tabog'i 6,0. "Arial" garniturasini 10, 11 kegl.
"Madad oshiyoni" MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri Yakkasaroy tumani Qushbegi ko'chasi 6-uy. Buyurtma
Adadi 4250 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

MUNDARIJA

DOLZARB MAVZU

Shahobiddin Rasulov. Bolalarimiz ertaga raqobatbardosh mutaxassisga aylanishlari uchun bugun
chet tillarni puxta egallashlari kerak.....3

DARS – MUQADDAS

Gulchehra Ortiqova. Ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalarining ma'no imkoniyatlari.....7

TAHLIL

Ravshan Jomonov. O'zbek tilida so'z o'zlashtirish: manbalari va usullari.....9

Fotimaxon Baxtiyarova, Muxtorjon Baxtiyarov. "Qutadg'u bilig"da astronomiyaga oid terminlar11

Dilfuza Zaripova. Huvaydning "Ibrohim Adham" qissasi tahlili.....13

ADABIYOTSHUNOSLIK

Manzura Mo'minova. Abdulla Oripov ijodida ijtimoiy mavzular talqini.....16

Sarvinov Abdusharifova. Omon Matjon she'riyatida talmeh17

Zavqiyjon Fayzullayev. Asriy Tabrizgiya zamondosh turkiy ijodkorlar19

METODIK TAVSIYA

Umid Xodjamqulov. PISA xalqaro baholash dasturi asosida maktab o'quvchilarining o'qish
savodxonligini oshirish metodikasi21

Dilfuza Razikova. Solving linguistic problems: the compensatory approach in technical language education25

Madina Kamolova. Teaching English with an emphasis on the sociolinguistic profile of learners.....26

YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Mahliyo Djakbarova. Boshlang'ich sinflarda sifat so'z turkumini o'qitishga yangicha yondashuv.....29

Dilafroz Sarimsakova. Continuing Professional Development through exploratory action research32

Sharofat Toshmirzayeva. Ta'lim taraqqiyotida "4K" metodi.....34

TARJIMASHUNOSLIK

Saida Sultanova. Tarjima jarayonida lingvistik interferensiyaning namoyon bo'lishi.....36

Dilbar Jumayeva. Bridging the gap: exploring the role of philology in translating motivational literature
and fostering cross-cultural understanding37

TADQIQOT

Minhojiddin Raximov. Ta'lim muassasalari tizimida yoshlarning ijodiy faolligini oshirish omillari40

Shahnoza Majidova. Surxondaryo gidronimlarining morfologik tahlili42

Iroda Xaydarova. So'z tarkibi komponentlarining lingvistik tabii44

KICHIK TADQIQOT

Dildora Tuxtayeva. Ingliz va o'zbek tillarida frazeologik birliklarning kelib chiqish manbalari.....46

Robiya Vaxobjonova. O'zbek adabiy tili publitsistik uslubining shakllanishi va taraqqiyoti.....47

К ЮБИЛЕЮ ПОЭТА / ПИСАТЕЛЯ

Николай Ильин. Поэзия, объединяющая народы49

Анатолий Лиходзиевский. «Все жанры хороши, за исключением скучного»51

ИЗ ОПЫТА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ

Саодат Магдиева. Синергетика структуры артпедагогической системы в практике
преподавания литературы в высшем педагогическом образовательном учреждении55

Хилола Юнусова. Введение падежной системы при обучении грамматике русского языка как неродного57

Наргиза Хамраева. Задачи методики преподавания русского языка и литературы
на современном этапе в высшем образовательном учреждении60

ЯЗЫКОЗНАНИЕ

Гульшод Хамраева. Проявление интерференции при обучении стилистике наречий
русского языка студентов иноязычных групп62

Азиза Муминова. Лингвистический ракурс изучения рекламного текста63

Альфия Галямова. Некоторые вопросы прагмалингвистики65

СОПОСТАВИТЕЛЬНОЕ ЯЗЫКОЗНАНИЕ

Гулноза Сабирова. Сопоставительный анализ личных и притяжательных местоимений английского
и узбекского языков и явление интерференции67

НАРОДЫ. ЯЗЫКИ. КУЛЬТУРА

Гульчеhra Давлятова, Зарина Аманова. Влияние русских и узбекских символов на формирование
национальной идентичности в молодежной среде70

Дилрабо Убайдова. Мифология – одна из древнейших дисциплин72

НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

Наргиза Мадаминова. Роль композитообразования в поэзии Серебряного века74

Шахло Алимарданова. К вопросу о стилистической дифференциации языка76

Алевтина Шварц. Эволюция значения фразеологических оборотов по прошествии времени78

TIL VA ADABIYOT

ТА'ЛИМИ

Я ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ | LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

*O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosati qarori bilan Filologiya hamda Pedagogika fanlari
bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy nashr.*



Umid XODJAMQULOV,
 Chirchiq davlat pedagogika universiteti professori,
 pedagogika fanlari doktori

PISA XALQARO BAHOLASH DASTURI ASOSIDA MAKTAB O'QUVCHILARINING O'QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISH METODIKASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak pedagoglarni zamonaviy yondashuvlar asosida o'qitish, ularda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda CLIL texnologiyasidan foydalanishning afzalliklari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: CLIL texnologiyasi, kommunikativ ko'nikmalar, kreativlik, kollaboratsiya, tanqidiy fikrlash, tabaqalashtirilgan o'qitish, raqamli vositalar, hamkorlikda o'qish, XXI asr talablari, sifatli ta'lim metodikasi.

Annotation. This article discusses the advantages of using the CLIL (Content and Language Integrated Learning) technology for teaching future educators based on modern approaches.

Keywords: CLIL technology, communicative skills, creativity, collaboration, critical thinking, differential teaching, digital tools, cooperative learning, 21st-century demands, quality education methodology.

Аннотация. В статье рассматриваются преимущества использования технологии CLIL при обучении будущих педагогов на основе современных подходов и формирование у них коммуникативных навыков.

Ключевые слова: Технология CLIL, коммуникативные навыки, креативность, коллаборация, критическое мышление, дифференцированное обучение, цифровые инструменты, совместное обучение, требования XXI века, методика качественного образования.

PISA baholash dasturi haqida ma'lumot. PISA (Programme for International Student Assessment) – xalqaro baholash dasturi bo'lib, u har uch yilda OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) tomonidan o'tkaziladi. Bu baholash dasturining asosiy maqsadi 15 yoshli o'quvchilarning turli sohalaridagi bilimlari, xususan, matnli axborotni tushunish va uni real hayotda qo'llay olish ko'nikmalarini baholashdir. Aksariyat davlatlarda bu yoshdagi o'quvchilar o'rta ta'limni yakunlash arafasida bo'ladi va PISA ularning kelajakda jamiyat va ish jarayoniga qanchalik tayyor ekanini aniqlaydi [1: 87].

PISA baholash dasturi matnli axborotlarni o'qish, tushunish, tahlil qilish va qo'llash bilan bog'liq o'qish savodxonligi, shuningdek, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha o'quvchilarning bilimini baholaydi. Bu baholash dasturi nafaqat ta'lim tizimidagi kamchiliklarni aniqlashga, balki sohadagi islohotlarni rejalashtirishga ham yordam beradi. Mamlakatimizning ushbu baholash dasturida ilk bor ishtiroki umumiy o'rta ta'limdagi mavjud holat, ta'lim mazmuni va unga qo'yilayotgan talablar, o'quvchilarning savodxonlik ko'nikmalarini xalqaro mezonlarga ko'ra baholash bilan bog'liq muhim xulosalar chiqarish imkonini yaratdi. Natijalar ko'plab sohalarida yaxshi tomonga o'zgarish qilish zarurligini ko'rsatdi, jumladan, o'qish savodxonligini oshirish masalasiga katta e'tibor qaratish lozimligini ta'kidladi.

O'qish savodxonligi nima va uning qanday ahamiyati bor? O'qish savodxonligi – insonning matnli axborotni tushunish, tahlil qilish va mazmunidan foydalanish qobiliyati bo'lib, nafaqat ta'lim jarayonida, balki kundalik hayotda ham muhim ahamiyatga ega. O'qish savodxonligi yuqori bo'lgan shaxslar axborotni to'g'ri va aniq tushunib, uni ish-

lash jarayonida samarali qo'llay oladi. Bu ko'nikma faqat maktabga xos emas, butun umr davomida rivojlanishi mumkin va zarur.

PISA dasturi bo'yicha o'quvchilar savodxonligini baholash mezonlari. PISA baholash dasturi doirasida o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash uchta asosiy mezonga asoslanadi: *tushunish, tahlil qilish va axborotni qo'llash qobiliyati*. O'quvchilarning bu mezonlar bo'yicha savodxonligi nafaqat matnni tushunib o'qish, balki uni tahlil qilish va turli hayotiy vaziyatlarda undan foydalana olish qobiliyatini baholash uchun muhim [3].

1. Tushunish. Bu mezon o'quvchining matnni qanday tushunayotganini baholaydi. Mazkur jarayonda o'quvchilardan turli matnlarni o'qib, uning asosiy g'oyasi va undagi muhim axborotni tushunish, shuningdek, ularni sharhlash ham talab etiladi. PISA baholash dasturida tushunish darajasi faqat birgalikdagi ma'lumotlarni yodlash emas, balki ma'lumotlar o'rtasidagi bog'liqliklarni tushunib, ularni hayotdagi voqealar bilan bog'lay olish ko'nikmasini ham o'lchovchi vosita sifatida foydalaniladi.

2. Tahlil qilish. O'quvchilarning matndagi ma'lumotlarni tahlil qilish, ularni turli nuqtayi nazar bilan taqqoslash va axborotning ishonchiligi yoki mantiqiyiligini baholash qobiliyatini o'lchaydi. Matnda keltirilgan faktlar va fikrlar o'rtasidagi bog'liqliklarni tushunib yetish ularni o'quvchilar tomonidan tahlil qilish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu qobiliyat nafaqat ta'lim jarayonida, balki hayotning boshqa sohalarida ham muhim hisoblanadi. Axborot manbalarini tahlil qilish va undan to'g'ri xulosa chiqarish qobiliyati o'quvchilar uchun juda muhim kompetensiya hisoblanadi.

3. Qo'llash. PISA xalqaro baholash dasturining asosiy vazifalaridan biri maktabda olingan bilimlarni turli hayotiy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat, ya'ni o'quvchi bilimlariga tayana olishi lozim. Bu mezonni baholash jarayonida PISA dasturi turli kontekstdagi savollar yordamida o'quvchilarning bilimni kundalik hayotda qo'llash qobiliyatini tekshiradi. Masalan, turmushda paydo bo'ladigan muammolarni hal qilishda turli axborot manbalaridan foydalanish va uning samaradorligini tekshirish orqali o'quvchining qo'llash qobiliyati baholanadi [2: 49]. Ushbu mezonlar nafaqat ta'lim tizimida o'quvchilarning savodxonlik darajasini o'lchashga yordam beradi, balki ularning kelajakdagi hayot va kasbiy faoliyatiga tayyorligini ham ko'rsatadi.

O'qish savodxonligini oshirish bo'yicha metodikalar. Bunda turli usulni qo'llash mumkin bo'lib, ularning maqsadi o'quvchilarda o'qishga qiziqish uyg'otish, matnli axborotni tushunish va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat. Quyida shularning ayrimlari haqida kengroq ma'lumot beramiz.

Faol o'qish usullari. Faol o'qish – o'quvchilarni matnli axborot bilan jonli va to'g'ridan to'g'ri muloqot qilishga yo'naltiruvchi metod. Bu jarayonda ular faqatgina matnni o'qish bilan cheklanmaydi, balki uning mazmunini tushunish va chuqur tahlilga harakat qiladi. O'quvchilarning tafakkurini rivojlantirish va ularning mulohaza yuritish qobiliyatini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Ushbu metodikani qo'llashda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish lozim:

- **savollar bilan ishlash.** O'quvchilar matnni o'qish jarayonida undan turli savollar tug'dira olishlari kerak. Masalan, matnda keltirilgan faktlar va fikrlar o'rtasida qanday bog'liqliklar bor? Berilgan ma'lumotlar asosida qanday xulosalar chiqarish mumkin? Bunday savollar o'quvchilarning fikrlashini chuqurlashtiradi va ularni tahlil qilishga yo'naltiradi;

- **ma'lumotlarni sarhisob qilish.** Faol o'qish jarayonida o'quvchilar matndan olingan asosiy g'oya va xulosalarni yozib boradi. Bu jarayon ularga axborotni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Matndagi muhim nuqtalarni belgilab qo'yish yoki taqqoslash orqali o'quvchilar matnning umumiy mazmunini yaxshiroq anglaydi;

- **qisqa muhokamalarni tashkil etish.** O'quvchilar o'qib chiqqan matnlar bo'yicha qisqa muhokamalar tashkil qilib, fikr va tushunchalarini boshqalar bilan bo'lishlari mumkin. Bu usul orqali ular o'zaro fikr almashadi va matnni tushunish qobiliyati yaxshilanadi. Bunday muhokamalar o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga undaydi, ularning mulohazalarini chuqurlashtiradi.

Matn bilan ishlash. O'quvchilar o'qish savodxonligini oshirishning yana bir samarali usuli – ularni turli matn bilan ishlashga yo'naltirish. Bu jarayonda ular har xil janrdagi matnlarni o'qish orqali o'z ko'nikmalarini rivojlantirishi mumkin [7: 267]. Har bir matn turi o'quvchilarning o'qish savodxonligini ko'p jihatdan oshirishga yordam beradi. Masalan:

- **hikoyalar.** Qisqa hikoya yordamida o'quvchilarning tushunish va taxmin qilish qobiliyatini rivojlantirish mumkin. Bunda hikoyani o'qish jarayonida asosiy personajlarning harakatini tushunib, kelgusi harakatlarini taxmin qiladi;

- **esselar.** Esse yozish o'quvchilarni o'z fikrini ifodalash va ularni aniqlashtirishga undaydi. Esse yordamida o'quvchilar o'qib tushungan ma'lumotlar asosida o'zlarining mustaqil fikrlarini bayon qilishga o'rganadi;

- **maqola va ilmiy matnlar.** Ilmiy maqola va boshqa tahliliy matnlar bilan ishlash o'quvchilarning tahlil qilish hamda tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Ilmiy matnlar o'quvchilardan chuqur tahlil qilish va matndagi ma'lumotlarni boshqa axborot manbalari bilan taqqoslashni talab etadi. Bu o'quvchilarda faktlar va ularning asosligini baholash ko'nikmasini rivojlantiradi.

Interfaol yondashuvlar. O'quvchilarni o'qish jarayonida faol ishtirok ettirish va ularni o'zaro hamkorlikka jalb qilish ularning o'qish savodxonligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Interfaol usullar orqali o'quvchilar o'zaro munozaraga kirishadi, o'zidagi tushunchalarni boshqalar bilan bo'lishadi va tanqidiy fikrlash ko'nikmasini rivojlantiradi [6: 4]. Bu usul jamiyatdagi ishlash ko'nikmalari va faol muloqotga tayyor bo'lishni ta'minlaydi.

Ushbu metodni quyidagi shaklda tashkil qilish mumkin:

- **guruhli muhokamalar.** O'quvchilar o'rtasida o'zaro fikr almashish va yangi bilimlarni muhokama qilishning samarali usuli. Bunda o'quvchilar bir-birining fikrini eshitish orqali o'z mulohazalarini rivojlantiradi va ularni tahlil qilishga yo'naltiradi.

- **debatlar** o'quvchilarning nuqtayi nazarlar bilan ishlash va ularni tanqidiy tahlil qilish qobiliyatini oshiradi. Bunda u o'z fikrini himoya qilishni o'rganadi, boshqalarning fikrini tushunib, baholashga harakat qiladi.

- **o'yin shaklidagi mashg'ulotlar.** Interfaol o'yinlar orqali o'quvchilar o'qish jarayonini qiziqarli va jonli qilib o'tkazishlari mumkin. Bunday mashg'ulotlar ularning diqqatini oshirish, matnli axborotni tez va aniq tushunish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Texnologiyalarning o'qish savodxonligini oshirishdagi roli. O'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirishda nafaqat to'g'ri tanlangan metodikalar orqali, balki ta'lim vositalari asosida ham samaradorlikka erishish mumkin. Jumladan, dars mashg'ulotida qo'llaniladigan zamonaviy texnologiyalar o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi [4]. Elektron kitoblar, audiokitoblar, onlayn ta'lim platformalari va boshqa interfaol vositalar orqali o'quvchilar o'qish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilib tashkil qilishi mumkin. Texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarga zamonaviy axborotga tez va oson kirish imkonini beradi. Bu esa ularning o'qish savodxonligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Quyida ta'limning ayrim zamonaviy texnologiyalarining afzalliklarini ko'rib chiqamiz:

1. Elektron kitoblar. Ularni istalgan vaqtda va joyda o'qish mumkin, foydalanish jarayoni tez va qulay, o'quvchilarda ko'proq axborot olish imkoniyati mavjud.

2. Audiokitoblar – o'qish savodxonligini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Ular axborotni eshitish orqali tushunish va chuqur tahlil qilishga ko'maklashadi. O'quvchilarga har qanday sharoitda, hatto sayohatlar yoki sport bilan shug'ullanish jarayonida ham matnli axborotni qabul qilish imkonini beradi, o'quvchilarning axborotni tushunish va yodda saqlash qobiliyatini rivojlantiradi.

3. Ta'lim platformalari. Zamonaviy ta'lim platformalari, masalan, Coursera, Khan Academy, edX kabi onlayn resurslar o'quvchilarga turli xil fanlar bo'yicha bilim olish imkonini beradi. Bu platformalar interfaol darslar va videolar orqali o'quvchilarning bilimni chuqurlashtirish, ularning tushunish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Psixologik yondashuvlar va motivatsiya. O'quvchilarni o'qishga rag'batlantirish va qiziqtirish jarayonida psixologik yondashuvlar va motivatsiya ham muhim rol o'ynaydi. Motivatsiyaning to'g'ri shakllantirilishi o'quvchilarning o'qishga bo'lgan munosabatini yaxshilaydi, ularning diqqatini oshiradi va bilim olish jarayonida ko'proq samarali natijalarga erishishga yordam beradi.

Quyida o'quvchilarni o'qishga rag'batlantirish bo'yicha turli psixologik yondashuvlar va motivatsiya usullariga to'xtalib o'tamiz:

1. Rivojlantiruvchi motivatsiya. O'quvchilarni o'qishga qiziqtirish va ularning darsga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirishda motivatsiyaning rivojlantiruvchi turlari muhim o'rin tutadi. Motivatsiya jarayonida erishilgan muvaffaqiyatlarni rag'batlantirish, o'quvchilarga o'z yutuqlarini baholash imkoniyatini berish ularning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Bu usulda o'quvchilar natijalarini yaxshilashga intiladi va bu ularning ma'naviy o'sishiga ham yordam beradi.

A) Rivojlantiruvchi maqto'vlar va e'tiroflar. O'quvchilarning faol ishtirokini maqtash va ularning yutuqlarini ta'kidlash orqali ularning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish mumkin. Bu jarayonda har bir o'quvchining shaxsiy yutuqlariga e'tibor qaratish va ularni boshqalar bilan taqqoslamasdan, shaxsan uning o'z kamoloti bilan baholash muhimdir. Bu yondashuv o'quvchilarga bilimlarini yaxshilashga undaydi va ularning o'z-o'zini baholash qobiliyatini rivojlantiradi.

B) Muvaffaqiyatli natijalarni rag'batlantirish. O'quvchilarga o'qish jarayonidagi muvaffaqiyatlari uchun turli rag'batlantirish vositalarini taqdim qilish ham ularni faol o'qishga undaydi. Bunday vositalar turli shaklda bo'lishi mumkin: maktabdagi mukofot, kichik sovg'a yoki maxsus faxriy unvonlar. O'quvchilarga o'qishda muvaffaqiyatga erishish uchun qo'shimcha rag'bat berish ularni yanada katta maqsadlarga intilishiga yordam beradi.

2. Individual yondashuv. Har bir o'quvchi o'z xususiyati, qobiliyati va qiziqishlariga ega. Shuning uchun psixologik yondashuvlardan foydalanishda individual yondashuvning ahamiyati katta. O'quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olish, ularning o'quv jarayoniga moslashtirilgan dastur va usullar bilan yondashish samaradorlikni oshiradi.

A) Shaxsiy o'quv rejalarini ishlab chiqish. Har bir o'quvchining o'ziga xos o'quv tempi va o'zlashtirish darajasi bor. Shunday ekan, o'quvchilarning bilimni rivojlantirish uchun ularning ehtiyojlariga moslashtirilgan shaxsiy o'quv rejalarini ishlab chiqish kerak [10]. Bu usul orqali ular o'zlarining o'ziga xos usulida bilim olishlari va o'z qobiliyatlarini namoyon qilishlari mumkin. Masalan, ayrim o'quvchilar vizual materiallar orqali ma'lumotni yaxshiroq o'zlashtiradi, boshqalar esa audio yoki o'yin shaklidagi materiallar orqali yaxshi o'rganishadi.

B) O'quvchilarning qiziqishlariga mos yondashuv. Har bir o'quvchining o'ziga xos qiziqishlari bor. Masalan, kimdir sportga qiziqsa, boshqa bir o'quvchi texnika yoki san'atga qiziqadi. O'quvchilarni o'qishga rag'batlantirishda shaxsiy qiziqishlariga moslashgan material va topshiriqlar berish muhim. Deylik, sportga qiziqqan o'quvchi uchun sportga oid matnlarni o'qitish yoki texnik fanlarga qiziqqan o'quvchilar uchun texnologiyalar haqidagi maqolalarni topshirish ularning o'qish savodxonligini oshirishda yordam beradi. Qiziqishlarga muvofiq materiallar tanlash o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini saqlab qoladi va ularning faol ishtirokini ta'minlaydi.

3. Maqsadli motivatsiya. O'quvchilarni o'qishga qiziqtirishning yana bir usuli ularga maqsadli motivatsiya berishdir. Bu yondashuv orqali ular o'z kelajagi uchun bilim olish muhimligini tushunishlari mumkin. Ortirilgan bilimlar ularga qanday foydali bo'lishi mumkinligi haqida ma'lumot berish va oldilariga aniq maqsadlar qo'yish o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

A) Ta'lim olishning manfaatlarini tushuntirish. O'quvchilarga bilim olishning hayotdagi ahamiyatini tushuntirish va kelajakda qanday natijalarga erishishi mumkinligini ko'rsatish ularning o'qishga bo'lgan munosabatini o'zgartirishi mumkin. Masalan, o'qish orqali yaxshi kasb egallash, muvaffaqiyatga erishish va kelajakdagi hayotini yaxshilash mumkinligi haqida ma'lumot berish ularning o'qishga qiziqishini oshiradi [8: 92]. O'quvchilar o'zlariga qo'yilgan aniq maqsadlar asosida ishlashni o'rganadilar va bu ularning motivatsiyasini saqlab turishga yordam beradi.

B) Maqsadlarni aniq belgilash. O'quvchilarning o'qishdagi motivatsiyasini oshirish uchun ularga aniq va bosqichma-bosqich maqsadlar qo'yish zarur. Masalan, har oy yoki har chorakda ma'lum bir fan bo'yicha muvaffaqiyatga erishish maqsadi qo'yilishi mumkin. Bu maqsadlarga erishish jarayonida ular o'zlarining yutuqlarini ko'rib, o'qishga bo'lgan qiziqishlarini saqlab qoladi.

Shu bilan birga har bir bosqichdagi muvaffaqiyat uchun rag'bat berish ularning motivatsiyasini yanada oshiradi.

4. Jamoaviy yondashuv va raqobatni shakllantirish. O'quvchilar o'rtasida sog'lom raqobatni shakllantirish va ularni guruhda birgalikda ishlashga rag'batlantirish ham motivatsiyani oshirishda samarali usullardan biridir. Bu yondashuv ularning o'zaro hamkorlik va jamoada ishlash ko'nikmalarini oshiradi, shu bilan birga o'qish jarayonida faol ishtirokini ta'minlaydi.

A) Jamoaviy loyihalar: o'quvchilarni birgalikda ishlashga yo'naltiruvchi jamoaviy loyihalar ularning o'qishga qiziqishini oshirishda yordam beradi. Loyihalar jarayonida har bir o'quvchi o'z rolini bilib, jamoaning umumiy muvaffaqiyatiga hissa qo'shadi. Bu usul orqali ular nafaqat o'qish jarayonidagi bilimlarini rivojlantiradi, balki jamoaviy ishlash ko'nikmasini ham egallaydi. Jamoada birga ishlash o'quvchilar o'rtasida sog'lom raqobatni shakllantiradi va ularning bir-biri bilan muloqot qilish qobiliyatini oshiradi.

B) Sog'lom raqobat muhitini yaratish. Sog'lom raqobat o'quvchilarni o'qish jarayonida faol ishtirok etishga undaydi. Masalan, o'quvchilar o'rtasida o'qish va fanlar bo'yicha turli musobaqalar tashkil qilish ularning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Bunday musobaqalarda g'olib bo'lish uchun ular ko'proq harakat qiladi va bilimlarini yanada chuqurroq o'zlashtirishga intiladi. Bunday muhitning yaratilishi o'quvchilarni o'z bilimlarini oshirishga rag'batlantiradi va ularning o'qish savodxonligini yuqori darajaga ko'tarishga yordam beradi.

5. Qiziqarli va interfaol ta'lim. O'quvchilarni o'qishga qiziqtirishning yana bir samarali usuli ta'lim jarayonini interfaol va qiziqarli qilib tashkil etishdir. O'qish jarayoni qiziq bo'lganda, ularning motivatsiyasi yuqori bo'ladi va bilim olishga qiziqishlari oshadi.

A) Interfaol o'quv mashg'ulotlari. Darslarda interfaol usullardan foydalanish o'quvchilarning diqqatini jalb qilishda samarali hisoblanadi. Masalan, o'quv mashg'ulotlarini o'yin, kviz yoki viktorinalar shaklida o'tkazish ularning faol ishtirokini ta'minlaydi va o'qish

jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshiradi [9: 38]. Bunday mashg'ulotlar o'qishni qiziqarli qilish bilan birga, ularning bilimlarini ham chuqurlashtiradi.

B) Texnologiyalardan foydalanish. Texnologiyalarning zamonaviy vositalari, masalan, audiokitoblar, interfaol onlayn o'yinlar va ta'lim platformalari yordamida o'qish jarayonini yanada qiziqarli va yorqin tarzda tashkil qilish mumkin. Masalan, virtual sayohatlar, 3D simulyatsiyalar va turli ta'lim platformalari yordamida fanlar bo'yicha materiallarni o'rganish o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi va ularni ko'proq o'qishga rag'batlantiradi.

Ushbu maqolada ko'tarilgan muammo va uning tadqiqi asosida quyidagi amaliy tavsiyalarni taklif qilamiz:

1. Ona tili ta'limida turli janrdagi matnlar bilan ishlashni ko'paytirish lozim.

2. O'quvchilarni har xil matn janrlari bilan tanishtirish va ularni tahlil qilishga o'rgatish.

3. Faol o'qish usullari va interfaol yondashuvlardan foydalanish.

4. O'quvchilarni faol o'qish jarayoniga jalb qilish va ularning matnli axborotni tahlil qilish ko'nikmalarini oshirish.

5. Zamonaviy texnologiyalar, jumladan, elektron kitoblar, audiokitoblar va onlayn ta'lim platformalari kabi vositalardan samarali foydalanish.

6. Ta'lim jarayonida psixologik yondashuvlar va motivatsiyaga e'tiborni kuchaytirish, xususan, o'quvchilarni o'qishga rag'batlantirish, ularning qiziqishlariga moslashuvchan bo'lish va individual yondashuv qo'llash kabilar.

PISA baholash dasturi natijalari respublikamiz maktab o'quvchilari o'rtasida o'qish savodxonligi bo'yicha muayyan kamchiliklar mavjudligini ko'rsatdi. Yuqorida keltirilgan metodikalar, interfaol usullar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali o'quvchilarning o'qish savodxonligini samarali oshirish mumkin. Har bir metod ularning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish, yanada faol o'quvchiga aylantirishga qaratilgan bo'lib, ularga o'qituvchilarning kreativ va ijodiy munosabatda yondashishi metodikalar samaradorligini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev Sh. O'qish savodxonligini oshirishda zamonaviy metodikalarning ahamiyati. – Toshkent: Universitet, 2019. – B. 125.
2. Norqulov B.A. O'zbekistondagi ta'lim tizimida PISA baholash dasturini joriy etish tajribasi. // Ta'lim va jamiyat, 2020. 5(3), – B. 45–57.
3. OECD (2019). PISA 2018 Results (Volume I): What Students Know and Can Do. Paris: OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/5f07c754-en>
4. Schütz, G. and Wößmann, L. The Impact of Student Literacy on Economic Growth. *Economics of Education Review*, 2020. 74, 101945.
5. Matkarimov A.M. PISA xalqaro baholash dasturi asosida o'quvchilar tayanch kompetensiyalarini shakllantirish: Ped. fan.b.fals.d-ri...diss. – Chirchiq, 2022. – B. 129.
6. Babanskiy Y.K. Hozirgi zamon umumiy ta'lim maktabida o'qitish metodlari. – Toshkent: O'qituvchi, 1990. – B. 4.
7. Jalolova L. Interfaol metodlar asosida o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirish. Zamonaviy uzluksiz ta'lim muammolari: innovatsiya va istiqbollar. / Xalqaro ilmiy konferensiya. – Toshkent, 2018. – B. 267.
8. Матюхина М.В. Мотивация учения младших школьников. М.В.Матюхина. – Москва: Педагогика, 1984. – 144 с.
9. Хавенсон Т.Е., Керша Ю.Д. Сравнительный анализ результатов тестов PISA и TIMSS в России и странах Европы / Национальный исследовательский университет «Высшая школа экономики», Институт образования. – Москва: НИУ ВШЭ, Современная аналитика образования, 2017. №1 (9). – 32 с.
10. Huisken F. Der "PISA-Schock" und seine Bewältigung. Wieviel Dummheit braucht/verträgt die Republik? // VSA-Verlag, Hamburg, 2005. – p. 193.